



## O'ZBEK TILIDAGI NEOLOGIZMLARNING EKSTRALINGVISTIK VA INTRALINGVISTIK OMILLAR ASOSIDA VUJUDGA KELISHI

**Obidova Shahlo Shuhratjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti, 2-kurs magistranti  
shahloxonmadaminova@gmail.com

**G'aniyeva Dildora Azizovna**

Filologiya fanlari doktori, Farg'ona davlat universiteti  
Chet tillar fakulteti katta o'qituvchisi

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- Aprel 2023 yil

Ma'qullandi: 28-Aprel 2023 yil

Nashr qilindi: 05-May 2023 yil

### KEY WORDS

*ekstralingvistik, intralingvistik, lisoniy, lug'aviy qatlam, struktural element, nolisoniy faktor..*

### ABSTRACT

*Dunyoda faqat o'z lisoniy birliklaridan tashkil topgan birorta ham sof til yo'q. Boshqa tillardan o'zlashgan lisoniy birliklar ham ekstralingvistik ham intralingvistik xususiyatlarga egaligi bilan tilning o'z lisoniy birliklaridan farq qiladi: o'zlashmalarning o'zga tilga o'tishi, uning usul va sabablari ekstralingvistik xarakter kasb etsa, ularning o'zga tildagi lisoniy amali intralingvistik xarakter kasb etadi. Ushbu ilmiy maqola aynan neologizmlarning ekstralingvistik va intralingvistik omillar asosida vujudga kelishini yoritib beradi.*

Barcha tillarning lug'at tarkibi taraqqiyotini belgilovchi qonuniyatlar ko'riladi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlarini lug'at tarkibiga ta'siri, buning lug'at tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib kelishi, lug'aviy birliklarning zamoniylilik, tarixiylilik, ekspressiv-stilistik jihatdan qatlamlanishi, ma'lum tematik va leksik-semantik guruhlariga uyushishi kabi jarayonlar barcha tillarga xosdir. Jamiyatda ijtimoiy tuzumning o'zgarishi fan va madaniyatning rivojlanishi, ilmiy-texnika taraqqiyotidagi yangiliklar u yoki bu tilning lug'aviy qatlamida ham o'z ifodasini topadi. Lug'aviy qatlam tilning boshqa sathlariga nisbatan tez o'zgarishga moyil bo'lgan struktural elementi sanaladi. Hayotda, ilm-fanda yuz beradigan voqea-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi tushunchalarni ifodalovchi so'z va iboralar tilda to'xtovsiz ravishda shakllanib turadi. Yangi predmet va tushunchalarni til birliklari yordamida ifodalashda jamiyatning talabini qondirish uchun mavjud til materiallari negizida yangidan-yangi so'zlar, iboralar yasaladi. Natijada tilda mavjud so'zlarning ma'nolari kengayadi, o'zgaradi, ijtimoiy-tarixiy sharoitlar talabi bilan bir tildan ikkinchi bir tilga so'zlar o'tadi va yangi lug'aviy qatlam vujudga kela boshlaydi.

Tilda yangi lug'aviy qatlam - neologizmlar tashqi (ekstralingvistik) va ichki (lisoniy) omillar asosida vujudga keladi. Lisoniy omillar (lingvistik faktorlar) - tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillar. Nolisoniy omillar (ekstralingvistik faktorlar) - til taraqqiyotiga (shu jumladan, leksik tizim rivojiga) tashqaridan ta'sir o'tkazuvchi omillar: ijtimoiy-siyosiy tizim, psixologiya, urf-odatlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, adabiyot-san'at va boshqalar.

Masalan, matbuot sahifalarida boshqa tillardan o'zlashgan yangi so'zlar - neologizmlar juda keng qo'llanadi. Bu esa neologizm hosil qilishning ekstralingvistik omili sanaladi. Mustaqillik davrida rasmiy ish qog'ozlarining davlat tilida yuritilishi juda ko'plab yangi o'zbekcha neologizmlarning hosil bo'lishiga olib keldi. Shu kungacha qo'llangan spravka, xarakteristika, akt, instruksiya, raport, protokol, kontrakt kabi so'zlarning yangi o'zbekcha muqobillari hosil qilindi: spravka - ma'lumotnoma, xarakteristika - tavsianoma, tavsifnoma; akt - dalolatnoma, instruksiya - yo'riqnoma, raport - bildirish, bildirishnoma; protokol - bayonnoma, majlis bayonnomasi; rezolyutsiya - munosabat belgisi, kontrakt - shartnoma va hokazo.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda bozor munosabatlarining vujudga kelishi, bank ishlarining taraqqiyoti bilan bog'liq holda german va roman tillaridan rus tili orqali o'zlashgan yangi so'zlar - neologizmlar bilan bir qatorda tilimizning ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan bir qancha neologizmlar ham keng qo'llana boshladi. Masalan: biznesmen - ishbilarmon, fermer - mulkdor, auditor - savdogar, auksion - ochiq savdo, aksiya - qimmatbaho qog'oz va boshqalar. Bunday neologizmlarning asosiy qismi ingliz tilidan o'zlashgandir. Ma'lumki, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, uyg'ur qoraqalpoq singari tillar o'zaro qarindosh tillar bo'lib, ular birligi turkiy tillar guruhini tashkil etadi. Tilimizda faol qo'llanadigan oyoq, qo'l, ikki, uch, ol, kel, yaxshi, men, sen singari so'zlar ko'pchilik turkiy tillar uchun ham faol so'zlar hisoblanadi. Barcha turkiy tillar uchun umumiy iste'molda bo'lgan bunday so'zlar umumturkiy so'zlar deyiladi. O'zbek tili leksikasining katta qismini umumturkiy qatlamga mansub so'zlar tashkil etadi.<sup>1</sup>

Tilimizda umumturkiy so'zlarning quyidagi leksik-tematik guruhlari faol ishlatiladi:

- 1) inson tushunchasi bilan bog'liq so'zlar: kishi, el, yurt;
- 2) qarindoshlik tushunchalari bilan bog'liq so'zlar: ota, ona, opa, enaga, aka, uka, singil, qayin, qayinog'a, yanga va boshqalar;
- 3) odam va hayvon tana a'zolari nomlari: barmoq, bag'ir, bel, bo'g'iz, biqin, milk, miya, og'iz va boshqalar. Muayyan tushuncha doirasida birlashuvchi bunday so'zlar guruhi uyadosh so'zlar deyiladi.

Shuningdek, tilimiz lug'at boyligining ma'lum bir qismi o'zbek tilining milliy tarixiy taraqqiyoti jarayonida tilning ichki imkoniyatlari, o'ziga xos qonun - qoidalar asosida hosil qilingan so'zlardan iborat. Ular quyidagi uch holatda kuzatiladi:

1. O'zbekcha o'zak va qo'shimcha asosida hosil qilingan so'zlar:  
qatnashchi, terimchi, og'machi, birlashma, qotma, o'tkazgich, turg'un, qo'llanma, yoqilg'i.
2. O'zlashma o'zak (so'z) va o'zbekcha yasovchi qo'shimchalar yordamida hosil qilingan so'zlar:
  - a) tojikcha so'zlardan: jangchi, mardlik, charxlamoq, xastalanmoq, do'stlik;
  - b) arabcha so'zlardan: rahbarlik, qimmatli, ovqatlanmoq, nomusli;
  - c) ruscha va boshqa xorijiy tillardan o'zlashgan so'zlar asosida: sportchi, shofyorlik, betonchi.
3. O'zbekcha o'zak va o'zlashma qo'shimchalardan hosil bo'lgan so'zlar: tug'ruqxona, so'rovnoma.
4. Boshqa tillardan kirib kelgan o'zak va yasovchi qo'shimchalardan: tilshunos, madadkor, mehnatkash, vagonsiz, ilmiy, gazetxon.

<sup>1</sup> N.Turniyozov, A.Rahimov. O'zbek tili. (Ma'ruzalar matni). 1-qism, Samarqand, 2006. 52-53 b.

Xulosa qilib aytganda, umumturkiy so'zlar va o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida shakllangan so'zlar tilning **o'z qatlamini** tashkil etadi. Shuningdek, tilimiz o'zbek lahja va shevalaridan, qardosh turkiy milliy tillardan kirib kelgan so'zlar hisobiga ham boyib boradiki, bu ham uning o'z qatlami imkoniyatlarini oshiradi. Nafaqat o'zbek tili balki butun dunyodagi barcha tillar ham ichki omil, ham tashqi faktor orqali o'zgarib, rivojlanib, o'z leksik qatlamini boyitib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academica Globe: Inderscience Research*, 3 (10), 126–128.
2. Mukhammad, K. K., & ogli Melikuziev, A. L. (2022, December). THE ESSENCE OF NONVERBAL COMMUNICATION. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 19, pp. 91-93).
3. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academica Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.
4. Ikromjonovna, M. D. (2021). LINGVO-COGNITIVE AND LINGUCULTUROLOGICAL ASPECTS OF PROVERBS AND MATALS IN DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 10(3), 46-53.
5. Mirzayeva, D. (2020). OCCURRENCE OF PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF PAREMIAS. In *ФИЛОСОФИЯ ИННОВАЦИЙ И СОЦИОЛОГИЯ БУДУЩЕГО В ПРОСТРАНСТВЕ КУЛЬТУРЫ: НАУЧНЫЙ ДИАЛОГ* (pp. 233-235).
6. Мирзаева, Д. И. (2020). ТУРЛИ ТИЛЛАРДАГИ ПАРЕМИЯЛАРНИ БОШҚА МАДАНИЯТ ВАКИЛЛАРИ ТОМОНИДАН ИДРОК ЭТИЛИШ МУАММОЛАРИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(5).
7. Farhod-qizi, V. D., & Dilshoda, M. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARDA "OVQAT" SEMASINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI. *Gospodarka i Innovacje.*, 24, 662-664.
8. Vaxobova, D., & Mirzayeva, D. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARDA "OVQAT" SEMASINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI. *Академические исследования в современной науке*, 2(1), 60-66.
9. Mirzayeva, D., & Sanginova, D. (2022). ZAMONAVIY INGLIZ VA O 'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING KONTEKSTUAL MA'NOSI VA TARJIMA MASALALARINING XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 1(B6), 820-824.
10. Abdullayeva, N. A., & Mirzayeva, D. I. (2022). ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA MAQOL VA MATALLARNING QO'LLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 64-69.
11. To'lanboyeva, G., & Mirzayeva, D. (2023). LINGVOKULTUROLOGIYA MAKTABLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(6), 56-58.
12. Farkhod-kizi, V. D., & Dilshoda, M. (2023). LINGUOCULTURAL STUDY OF THE TERM "FOOD" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMİY JURNALI*, 3(1), 31-36.
13. Urmonova, M., & Mirzayeva, D. (2023). DETERMINATION OF THE CONCEPT OF "INTELLIGENCE AND UNINTELLIGENCE" IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 3(3), 91-96.

14. Тошқўзиёва, М., & Мирзаева, Д. (2022). ЗАМОНАВИЙ КОММУНИКАТИВ ЖАРАЁНДА МАҚОЛЛАРНИНГ ПРАГМАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УНИНГ ТИЛШУНОСЛИҚДА ЎРГАНИЛИШИ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(12), 1008-1011.
15. Ikromjonovna, M. D. (2022). LINGUOCULTUROLOGY OF METAPHORS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 836-840.
16. Vaxobovna, A. Z., Ikromjonovna, M. D., & Kamolovna, X. M. (2022). INGLIZ TILIDA SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMiy TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 378-384.
17. Mirzaeva, D., & Bo'riyeva, O. (2022). THE REALIZATION OF THE CONCEPT" POISON" IN UZBEK AND ENGLISH PROVERBS AND THEIR LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS. Science and Innovation, 1(7), 618-621.
18. Mirzayeva, D. I., & qizi O'rmonova, M. F. (2022). "AQL VA AQLSIZLIK" KONSEPTIGA OID PAREMALARNING LINGVOMADANIY TADQIQI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 21, pp. 60-65).
19. Tursunova, N., Mirzayeva, D., & Ermatova, Y. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILI PAREMALARIDA GENDER ASPEKTINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQI. Science and innovation, 1(B6), 930-933.
20. Mirzayeva, D. I., & O'Rmonova, M. F. Q. (2022). Lingvomadaniy birliklar. Science and Education, 3(10), 654-658.
21. Mirzayeva, D., & Sanginova, D. (2022). CONTEXTUAL MEANING OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN MODERN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND FEATURES OF TRANSLATION ISSUES. Science and Innovation, 1(6), 820-824.

INNOVATIVE  
ACADEMY